



ADABIYOTDA OBRAZ VA OBRAZLILIK

Raxmonqulova Feruza Akmal qizi

UzSWLU 3rd English faculty

Xakimova Maksadxon Dilshodbekovna

Scientific advisor

Adabiyotda obraz va obrazlilik muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular adabiyotning asosiy xususiyatlaridan biridir. Obrazlar adabiyotdagi insoniy xayollarni ifodalashning asosiy vositalari sifatida qaraladi. Ular adabiyot asarlarida ko'rinadigan odamlar, joylar, voqea va narsalarni ifodalaydi. Obrazlar orqali yozuvchi o'z fikr-mulohazalarini kitobxonlarga yetkazadi va o'quvchiga tasvirlangan dunyoni ko'rsatadi. Obrazlilik esa adabiyotda obrazlarning ko'rsatilish usullarini ifodalaydi. Bu esa yozuvchining qo'lga kiritgan obrazlarni qanday shakllantirish, ularni qanday tavsif qilish va ularni qanday maqsadga yo'naltirish haqida ma'lumot beradi.

Obraz va obrazlilik adabiyotda qissalar, romanlar, she'rlar va hikoyalar yozishda katta ahamiyatga ega. Ular asar muallifi o'zining fikr-mulohazalarini boshqa bir tinglovchiga badiiy bo'yoqlar bilan yetkazishiga yordam beradi. Obrazlar insonlarning psixologik xususiyatlarini, jamiyatdagi o'ziga xos xulq va tabiatini ifodalaydi. Shuningdek, obrazlilik yozuvchining shaxsiy xarakterini, hayot tarzini va uslubini ham namoyon etadi. Keling endi shu o'rinda obraz va obrazlilik tushunchalarini tahliliga ham urg'u berib ketsak. Ma'lumki, adabiyotda obraz va obrazlilik tahlili o'qitishda va tadqiqotlarda keng ko'lamda o'rganiladi. Shu o'rinda men ham o'zim she'rlarini sevib mutolaa qiladigan shoir G'afur G'ulomning asarlaridagi obraz va obrazlilik timsollarini namuna sifatida keltirib o'tmoqchiman.

“O'zbek onasi” degan iboraning mazmun-mohiyati ko'plab asarlar orqali bizga kundek ravshan. Lekin “o'zbek otasi” tushunchasi bilan biz G'afur G'ulomning “Sog'inish” she'ri orqali yaqindan tanishishimiz mumkin. Bu she'rda otalarimizga xos bo'lgan jamiki fazilatlar o'zining yorqin ifodasini topgan. Ularning samimiyligi, jonsarakligi, har doim ham oshkor qilinavermaydigan farzandga mehr-u muhabbati, kuzatuvchanligi, tantiligi, andishasi... barcha-barchasi shu she'rda namoyon bo'ladi. Asar mralari ichra urushga ketgan o'g'lidan bir mujda-nedir yaxshi xabar kutayotgan Otaning bezovta yuragi gupillab urib turibdi. Uning ko'ngliga goh vahima-vasvasa ko'lanka soladi. Atrofga har kuni yuzlab “qoraxat” qo'nayotgan tahlikali kunlarda bu bezovtalikka, albatta, o'rin bor-“Ne qilsa otaman, meros hissiyot...”

“Sog'inish” she'rining lirik qahramoni-Otaning sog'inchi shunchalar zo'rki, u har bir narsadan umidlanadi, najot so'rab to quyoshga qadar zorlanadi:

Eng kichik zarradan Yupitergacha

O'zing murabbiysan, xabar ber, quyosh.

She'rning mana bu satri ham diqqatga sazovor:

Tong otar chog'ida juda sog'inib,

Bedil o'qir edim, chiqdi oftob



Loyqa xayolotlar chashmaday tindi,

Pok-pokiza yurak bir qatra simob.

She'rda Ota sog'inch o'rtaga paytlari aynan Bedilni o'qishi aytilmoqda. Nega aynan Bedil she'rlari? Gap shundaki, asli nasli turkiylardan bo'lgan fors shoiri Bedil she'riyati o'zining falsafiy chuqurligi, o'quvchini o'tkinchi dunyo g'am-tashvishlaridan yuqoriroq turib fikrlashga undashi bilan ajralib turadi. Bedil mutolaasi Otaga abadiy haqiqatlardan, o'lmas va yuksak tuyg'ulardan saboq beradi. Azaldan xalqimizda bir naql bor: "Shoirlr yarim avliyodirlar". Bu qarashning naqadar to'g'riligini G'afur G'ulomning "Sog'inish" she'ri ham to'la isbotlaydi. Quyidagi misralarga e'tibor beraylik:

...Sizlarni keldi, deb eshitgan kuni
O'zing to'qib ketgn katta savatda
To'latib shaftoli uzib chiqaman,
G'alaba kunlari yaqin albatta...

Urush 1945-yilning mayida tugagan, unda tirik qolgan jangchilar ayni shaftoli pishig'ida uylariga qayta boshlaganlar...

Xulosa o'rnida G'afur G'ulomning "Sog'inish" she'ri nafaqat urush davri nafaqat o'zbek she'riyati, balki insoniyat badiiy tafakkurining eng yuksak cho'qqilarida turishga arzigulik nodir durdona asardir.

Aziz asrimizning aziz onlari
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.
Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq onidir umr daftarin.

Ha siz va biz bilgan bu mashhur satrlar G'afur G'ulom qalamiga mansub. Ushbu she'r shoirning 1945-yilda fashizm ustidan qozonilgan g'alaba munoabati bilan yozgan "Vaqt" she'ridir. Shoir mazkur she'rda lahza (sekund) ning mohiyatiga nazar tashlaydi. Darhaqiqat, yuzaki qaraganda, lahza nima? Ko'z ochib yumguncha o'tadigan fursat. Go'yo e'tiborga, diqqatga arzimaydi. O'z umrini poyonsiz deb o'ylaydigan aksariyat odamlar uchun lahzaning sariq chaqalik qimmati bo'lmasligi mumkin. Biroq...

G'alaba amri-la mag'lub nemisning
Generali qo'l qo'ydi. Uch sekund faqat...
Shu ma'lun imzoda odamlar o'qir

Million yil fashistning umriga lan'at.

Ushbu satrda shoir biz uchun ahamiyatsiz bo'lgan uch sekundning qanchalik ahamiyatli ekanligini mohirona tarzda tasvirlab bergan. Fashizmning o'z mag'lubiyatini tan olib, german armiyasining so'zsiz taslim bo'lishi to'g'risidagi hujjatga imzo qo'yish uchun uch sekund vaqt talab qilindi, xolos. Biroq shu uch sekundga yetib kelish insoniyatga qanchalar qimmatga tushgani tarixdan barchamizga ma'lum.

Shuningdek, ushbu she'rda shoir dunyoda shuhrat qozonmoqning yo'llari ko'p ekani, biroq bu yo'llarning biri odamni sharmandali shuhratga olib kelsa, ikkinchisi yaxshi xotiralar ila tarixga muhralishini quyidagi satrlarda tasirli tarzda ifodalab beradi:



Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek
Diana ma'budin yoqmoq shart emas.
Ko'plarning baxtiga o'zning jamlab
Shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysak, bas.

Faylasuf shoir G'afur G'ulom o'zining ushbu she'ri orqali –lahzaga abadiy haykal qo'ydi. Va bu asar asrlar o'tsada o'zbek adabiyotimizdagi eng nodir durdonalari qatorida yodga olinadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotda obraz tushunchasi ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi. Aynan mana shu omillar bizga asarlarda ijodkorning qalb so'zini va ruhiyatini anglashda katta yordam beradi deb bemalol ayta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. Tafakkur.net
3. <https://www.samdu.uz>
4. www.researchgate.net